



Хулоса: Шундай қилиб, кимёвий фаоллаштириш натижасида нафақат сирт морфологиясини ўзгаришига, шунингдек солиштирилган рентген таҳлиллари натижасида материални аморфлигини, бундан ташқари кимёвий фаоллаштириш натижасида структурада ўзгаришлар бўлиши, шунингдек кристалл чўққиларни аниқлиги, материални кристаллигидан дарак беради.

Адабиётлар рўйхати

1. РФ патенти 2459863, МПК С11Б 3/00, В01Ж 20/22. Ўсимлик мойларини кунгабоқар пўстлогли ёрдамида тозалаш усули / Ковалев Ю.Н., Канифатов Е.Г., "ЮНКААгопродукт" МЧЖ; 27.08.11, Бюл. №24. – 4 бет: [Хавола](#).
2. Samas N, Cırak S, Esendal E. (2007). Сафро уругининг хосилдорлиги, ёғ таркиби ва ёғ кислоталари таркиби. Туркиянинг шимолий шароитларида ўстирилган. Faculty of Agriculture Journal, 22(1): 98-104.
3. Bhat ZF, Pathak V, Bukhari SAA, Ahmad SR. Оат браннинг физик-кимёвий ва органолептик баҳоси. brannin Beverage and Food World. 2010; 37(6): 37–43.
4. Ездаков В.Н. Ўзбекистон гилининг адсорбсион хусусиятлари. Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент, 1961, 47 бет.
5. Арипов Е.А. Табиий минерал сорбентлар, уларни активатсия ва модификация қилиш. Тошкент: Фан, 1970, 250 бет.
6. Овчаренко Ф.О. Гил ва гил минералларининг гидрофиллиги. Киев, АН Украин нашриёти, 1961, 291 бет.
7. Марказий Осиё конларининг оқартирувчи эрларини ўрганиш / Залесов Ю.П. раҳбарлигида // SAF VNIIZh хисоботи, 1956, 52 бет.
8. Орипов Е.О. Табиий минерал сорбентлар ва фарматсия. // Кимё ва фарматсия, 1993, №2, 28-37 бет.
9. Бйков В.Т. Табиий сорбентларнинг тузилиши ва адсорбсион хусусиятлари. Табиий сорбентлар тупламида. М.: Наука, 77-87 бет.
10. Викулова М.Ф. Гил жинслари- чуқинди жинсларнинг петрографияси бўйича қўлланма. Л.: Недра, 1958, т.2, 147-188 бет.
11. Рекшинская Л.Г. Гил минераллари ва уларнинг чуқинди жинслардаги табиий ассотсияларининг электрон микрофотосуратлар атласи. М.: Недра, 1966, 230 бет.

KREATIV QOBILIYAT TUSHUNCHASI VA UNING O‘QUVCHILARDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Elbekova Shohsanam Ne’matjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “kreativ qobiliyat” tushunchasining mohiyati, ularni o‘quvchilarda shakllantirish bosqichlari hamda bu jarayonning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim jarayonida kreativ fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, xorijiy tajriba hamda O‘zbekiston ta’lim tizimidagi yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ qobiliyat, ijodiy tafakkur, innovatsion fikrlash, shaxs rivoji, o‘quvchi faoliyati, ta’lim jarayoni, psixologik asos, pedagogik yondashuv, ijodkorlik, tafakkurning bosqichlari, kreativ tafakkur, ijodiy muhit, o‘quv motivatsiyasi, o‘zini ifoda etish, mustaqil fikrlash

THE CONCEPT OF CREATIVE ABILITY AND ITS STAGES OF FORMATION IN STUDENTS

Shohsanam Ne’matjon qizi Elbekova

2nd-year Master’s student, Namangan State Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the essence of the concept of “creative ability,” the stages of its development in students, and the pedagogical and psychological aspects of this process. It also highlights the scientific and theoretical foundations of fostering creative thinking, inventiveness, and independent decision-making skills in the modern educational process, based on international experience and approaches within the education system of Uzbekistan.



Keywords: creativity, creative ability, creative thinking, innovative thinking, personal development, student activity, educational process, psychological basis, pedagogical approach, inventiveness, stages of thinking, creative cognition, creative environment, learning motivation, self-expression, independent thinking

ПОНЯТИЕ КРЕАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И ЭТАПЫ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Эльбекова Шохсанам Нейматжон кизи

магистрант 2-го курса Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье проанализирована сущность понятия «креативные способности», этапы их формирования у учащихся, а также педагогические и психологические аспекты этого процесса. Освещены научно-теоретические основы развития креативного мышления, творчества и навыков самостоятельного принятия решений в современном образовательном процессе на основе зарубежного опыта и подходов, применяемых в системе образования Узбекистана.

Ключевые слова: креативность, креативные способности, творческое мышление, инновационное мышление, развитие личности, учебная деятельность, образовательный процесс, психологическая основа, педагогический подход, творчество, этапы мышления, креативное мышление, творческая среда, учебная мотивация, самовыражение, самостоятельное мышление

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — o’quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va yangilik yaratish ko’nikmalarini rivojlantirishdir. “Kreativ” atamasi inglizcha “create” — “yaratmoq” so’zidan olingan bo’lib, shaxsning noodatiy fikrlash, ijodkorlik bilan muammolarga yechim topish qobiliyatini bildiradi.

O’quvchilarda kreativ qobiliyatni shakllantirish jarayoni uzluksiz, bosqichma-bosqich kechuvchi murakkab pedagogik-psixologik jarayondir. Bu jarayon o’quvchining intellektual faolligini oshirish, o’quv motivatsiyasini kuchaytirish, shaxsiy salohiyatni ro’yobga chiqarish va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta’limda kreativ yondashuv o’qituvchining pedagogik mahorati, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, hamda o’quvchilarni erkin fikrlashga undovchi ijodiy muhit yaratishga bevosita bog’liqdir. Shu sababli, kreativ qobiliyatning nazariy asoslarini o’rganish va uning o’quvchilarda shakllanish bosqichlarini ilmiy tahlil qilish zamonaviy ta’lim islohotlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning farzandlarimiz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunar egasi bo’lishlari zarur”. Shu bois, kreativ yondashuv ta’lim jarayonining asosiy tamoyillaridan biriga aylanmoqda.

Kreativ qobiliyat — bu shaxsning yangi g’oyalarni yaratish, mavjud holatlarga noodatiy yondashish va ijodkorlik bilan muammolarni hal etish imkoniyatidir. J. Gilford, E. Torrens, G. Gardner kabi olimlar kreativ fikrlashni tafakkurning eng yuqori shakli sifatida e’tirof etganlar.

Ilk bor “kreativlik” termini XX asrning o’rtalarida G’arb psixologlari tomonidan fanga kiritilgan. Xususan, amerikalik olim J. Gilford (1950) ijodiy tafakkurni inson intellektining muhim ko’rsatkichi sifatida ta’riflagan. U divergent (ya’ni turli yo’nalishlarda fikrlay olish) tafakkurni kreativlikning asosi deb bilgan. Shuningdek, E. Torrens kreativlikni “muammoni ilg’ash, yechimni izlash, farazlarni ilgari surish va ularni sinovdan o’tkazish” jarayonisifatidatavsiflagan.

Pedagogik nuqtayi nazardan, kreativ qobiliyat shaxsning ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchini tayyor bilim egasi emas, balki mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan subyekt sifatida ko’radi. Shu boisdan ham kreativ qobiliyatni rivojlantirish o’quv jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Olimlar kreativ qobiliyatni bir necha tarkibiy jihatdan tahlil qiladilar:

1. Original fikrlash — odatiy bo’lmagan, yangi g’oyalarni ilgari surish qobiliyati.
2. Moslashuvchanlik — turli vaziyatlarga qarab fikrlash yo’nalishini o’zgartira olish.
3. Tezkorlik — g’oyalarni qisqa vaqt ichida shakllantira olish.



4. Tahlil va sintez qobiliyati — mavjud bilimlarni birlashtirib, yangi natija yaratish.

Kreativ qobiliyatning shakllanishiga bir qator omillar ta’sir ko’rsatadi:

Ijtimoiy-madaniy muhit:

Bu omil o’quvchining yashayotgan jamiyati, oilasi, maktab muhiti va ijtimoiy qadriyatlari bilan bevosita bog’liqdir. Ijodiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalash uchun erkinlik, fikr bildirish madaniyati va yangilikka ochiqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ijtimoiy-madaniy muhit yangilikni qo’llab-quvvatlasa, o’quvchi o’z fikrini erkin ifoda etishdan cho’chimaydi va kreativ salohiyatini faol namoyon eta oladi.

Mustaqil o’qish va fikrlash imkoniyati;

Kreativlikning asosi — mustaqil fikrlashdir. O’quvchiga tayyor javoblarni berish emas, balki ularni izlash, tahlil qilish, muqobil yechimlar topish imkonini berish zarur. Mustaqil o’qish jarayonida o’quvchi bilimni faqat yod olmaydi, balki uni o’z hayotiy tajribasi bilan bog’laydi. Bu esa ijodiy tafakkurning rivojlanishiga zamin yaratadi.

O’qituvchining ijodiy yondashuvi;

O’qituvchi — kreativliknishakllantirishda eng muhim vositachidir. Uning dars jarayonida innovatsion metodlardan foydalanishi, o’quvchilarni fikrlashga undovchi savollar berishi, ularni rag’batlantirishi ijodiy muhitni vujudga keltiradi. O’qituvchi o’zi ijodiy bo’lmasa, o’quvchilarda kreativlikni uyg’otish ham mushkul bo’ladi.

Innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish;

Bugungikundata’limjarayonida interfaol va muammoli o’qitish, loyihaviy yondashuv, “aqliy hujum”, “rol o’ynash”, “klaster”, “debat” kabi usullardan foydalanish o’quvchilarda ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Bunday metodlar o’quvchini darsda faol ishtirok etishga, o’z fikrini asoslashga va yangicha yechimlar topishga o’rgatadi.

Rag’batlantiruvchi muhit yaratish.

O’quvchilarningharbirijodiy sa’y-harakatini qadrlash, ularni rag’batlantirish, muvaffaqiyatlarini e’tirof etish — bu motivatsiyani kuchaytiruvchi muhim omillardir. Rag’bat mavjud bo’lgan muhitda o’quvchi o’zini erkin his qiladi, yangilikdan qo’rqmaydi va o’z qobiliyatini ro’yobga chiqarishga intiladi. Kreativ qobiliyatlarning shakllanishi uch bosqichda amalga oshadi:

1. Motivatsion bosqich — bu bosqichda o’quvchida o’rganishga, izlanishga, yangilik yaratishga ichki ehtiyoj shakllanadi. O’quvchi o’zining shaxsiy qiziqishlari, orzulari va maqsadlarini anglay boshlaydi.

Motivatsion bosqichning asosiy vazifasi — o’quvchini dars jarayoniga faol jalb etish, unda ijodiy fikrlashga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdir.

O’qituvchi bu davrda o’quvchining diqqatini jalb etuvchi, fikrlashni faollashtiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar, interfaol o’yinlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanadi. Shu orqali o’quvchi “men ham yangilik yarata olaman” degan ishonchga ega bo’ladi.

2. Amaliy bosqich - bunda o’quvchi o’zining ijodiy fikrlash ko’nikmalarini amaliyotda sinab ko’radi. Bu jarayon davomida u yangi g’oyalarni ilgari suradi, ularni amalda qo’llab ko’radi, natijalarni tahlil qiladi va xatolarni to’g’rilashga o’rganadi.

Mazkurbosqichdao’quvchilarmustaqil topshiriqlar, kichik loyihalar, guruhli ishlanmalar orqali o’z salohiyatini namoyon etadi. O’qituvchi esa yo’naltiruvchi va maslahat beruvchi rolni bajaradi, o’quvchining mustaqilligini qo’llab-quvvatlaydi.

Amaliy bosqichda “aqliy hujum”, “fikrlar xaritasi”, “muammoli ta’lim”, “debat” kabi metodlar samarali natija beradi. Bu usullar orqali o’quvchi muammoni turli burchaklardan ko’rib chiqadi va ijodiy yechimlar topadi.

3. Refleksiv bosqich — bunda o’quvchi o’z faoliyatini tahlil qiladi, erishilgan natijalarni baholaydi va keyingi rivojlanish yo’nalishlarini belgilaydi. Bu bosqich kreativlikni chuqurlashtirish, o’z-o’zini anglash va o’z ustida ishlash jarayonidir.

O’quvchi “men bu vazifani qanday bajardim?”, “nima yangilik yaratdim?”, “keyingi safar nimalarni yaxshilashim kerak?” kabi savollar orqali o’z fikrlashini tahlil qiladi. Shunday qilib, refleksiya o’quvchiga tajribadan xulosa chiqarish va o’zining ijodiy faoliyatini doimiy takomillashtirish imkonini beradi.

Bu jarayon o’qituvchi tomonidan yaratib berilgan ijodiy muhit, rag’batlantirish tizimi va mustaqil topshiriqlar orqali rivojlanadi.

XORIJIY TAJRIBA VA O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI YANGICHA YONDASHUVLAR



1. Xorijiy tajribalar

Xorijiy mamlakatlarda ta’lim sohasida qo’llanilayotgan bir qator yondashuvlar O’zbekistonga ham moslashmoqda:

Dual education (Ikkitomonlama ta’lim) modeli — Germaniya, Shveysariya kabi mamlakatlarda keng qo’llaniladi: o’quvchi nazariy ta’limni institutda oladi, amaliyot esa ishlab chiqarish, korxona yoki tashkilotda amalga oshiriladi. O’zbekistonda ham 2021/2022-yillardan boshlab ushbu model joriy etilmoqda.

Xalqaro baholash tizimlari yordamida ta’lim sifatini aniqlash va yaxshilash — masalan, baholash, akkreditatsiya, xalqaro sertifikatlash bo’yicha tashabbuslar.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim (Competency-Based Education, CBE) — o’quvchilarda faqat bilim emas, balki amaliy ko’nikma, muammolarni hal qilish qobiliyati shakllanishiga yo’naltirilgan. O’zbekistonda bu jihat ham joriy qilinmoqda.

Bu tajribalar bilan, O’zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, yangicha metod va texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari ko’rinmoqda.

2. O’zbekistondagi yangicha yondashuvlar

O’zbekistonda so’nggi yillarda ta’limda bir qator yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Quyida ularning ayrimlar keltirilgani:

a) Kurikulum va baholash tizimi yangiligi

O’quvchilarga faqat nazariy ma’lumot berish emas — amaliy ko’nikma, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, UNICEF va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda “kompetensiyaga asoslangan ta’lim” modeli ustida ish olib borilmoqda.

O’quv jarayonida vaziyatni tahlil qilish, muammoli vazifalar, guruh ishlarini ko’paytirish bo’yicha tashabbuslar mavjud.

b) O’qituvchilarning malakasini oshirish va pedagogik markazlar tashkil etish

Maktabgachata’limdan boshlab malakali, zamonaviy pedagoglardan foydalanish, ularning tajribasini oshirish bo’yicha markazlar ochilmoqda. Masalan, Samarqandda pedagogik ustuvorlik markazi tashkil etildi.

O’qituvchilarga zamonaviy metodikalaridan foydalanish, multimedia, interfaol metodlar joriy etish bo’yicha tayyorgarlik ko’rilmoqda.

c) Maxsus ta’lim muassasalari va ilg’or maktablar

“Prezident maktablari”, ijodiy maktablar, maxsus fanlar maktablari... Bu muassasalar orqali xalqaro standartlarga mos ta’lim berish yo’lga qo’yilmoqda.

Xorijiy hamkorlik orqali maktab dizayni, dars jarayoni, baholash tizimi yangicha shakllanmoqda.

d) Ta’limni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish

O’quv jarayonidaraqamli platformalar, onlayn va aralash ta’lim modellari (blended learning) qo’llanilmoqda. Masalan, maktabgacha ta’limda bunday yondashuvlar ko’paymoqda.

Ta’lim 5.0 konsepsiyasi (talabaga yo’naltirilgan, texnologiyalarga boy) haqida tadqiqotlar mavjud.

Dunyomiqyosidakreativ ta’limning samarali modellari biri — STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvidir. Bu tizim o’quvchilarda muammolarni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni uyg’unlashtiradi.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi metodlar o’quvchilarning tilni o’rganish bilan birga ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosaqilibaytganda, kreativ qobiliyatlarni shakllantirish — zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va strategik yo’nalishlaridan biridir. Chunki bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy va texnologik yuksalish bevosita inson kapitalining, xususan, ijodkor va yangilik yaratadigan yoshlarning salohiyatiga bog’liqdir. Kreativ fikrlovchi o’quvchi — bu mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammolarga noodatiy yechim topadigan va o’z bilimini amaliyotda qo’llay oladigan shaxsdir.

Shunday ekan, har bir pedagog o’z faoliyatida o’quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning qiziqishlarini rag’batlantirish, erkin fikr almashish va g’oya yaratish muhitini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. O’quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy ishlar, interfaol metodlar (“aqliy hujum”, “debat”, “klaster”, “fikrlar xaritasi” kabi)dan foydalanish o’quvchilarning kreativ salohiyatini ochishga yordam beradi.

Bundantashqari, o’qituvchilarning o’zlari ham ijodiy yondashuvga ega bo’lishlari, yangilikka intilishlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llay olishlari zarur. Chunki kreativlikni shakllantirishning eng samarali yo’li — bu ijodiy fikrlaydigan pedagog shaxsidir.



Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, ta’lim tizimida kreativlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan dasturlar, innovatsion yondashuvlar va ochiq ta’lim muhiti nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki jamiyatning intellektual va ma’naviy rivojiga ham xizmat qiladi. Shu bois, O’zbekiston ta’lim tizimida ham kreativ qobiliyatlarni shakllantirishni uzluksiz jarayon sifatida yo’lga qo’yish, ularni baholash va rag’batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Natijada, o’quvchilarda mustaqil, ijodkor, yangilik yarata oladigan shaxsni tarbiyalash orqali mamlakatning raqobatbardoshligi, intellektual salohiyati va ijtimoiy barqarorligi yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York, 1967.
2. Torrance E.P. Creativity: Its Nature and Nurture. – Seoul: Kyung Hee University Press, 1998.
3. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York, 1983.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Yoshlar ijodkorligini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi PQ–4319-son qarori.
5. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva, 1984.
6. Torrens E.P. Tests of Creative Thinking. – Lexington, 1974.
7. Nazarov B. Pedagogik tafakkur va kreativlik. – Toshkent, 2020.
8. O’zbekiston Respublikasi Ta’lim kodeksi loyihasi, 2023-yil.
9. Xodjayev A., Karimova N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
10. UNESCO. Education for Creative Development. – Paris, 2018.
11. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – 2020.
12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
13. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O’RNI VA AHAMIYATI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(3), 607-613.
14. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o’g’li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI. MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI, 1(1), 98-102.

U.O‘T: 635.656: 631.527

LALMIKOR MAYDONLARDA XASHAKI VA XO‘RAKI KO‘K NO‘XATNING BIOMETRIK TAHLILI ASOSIDA MAHSULDORLIGI YUQORI TIZMALARINI TANLASH

Mamatqulova S.U.,

I bosqich tayanch doktoranti Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Naxalbayev J.T.,

q/x.f.f.d.(PhD), k.i.h, Dukkakli don ekinlari genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadqiqot olib borilayotgan nazorat va kolleksiya pitomnigidagi hashaki va ho’raki ko’k no’xat nav namunalari biometrik tahlil natijalari asosida mahsuldorligi yuqori tizmalarni tanlash haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ko’k no’xat, nav namuna, liniya, oqsil, aminokislota, unuvchanlik, mahsuldorlik, o’simlik bo’yi, dukkak soni

ОТБОР ВЫСОКОПРОДУКТИВНЫХ ЛИНИЙ НА ОСНОВЕ БИОМЕТРИЧЕСКОГО АНАЛИЗА МАКА И КОРМОВОГО ГОРОШКА НА ПОЛЯХ ЛАЛМИКОР

Маматкулова С.У.,

*базовый докторант I ступени Дехканчиликского научно-исследовательского института
«Лалмикор»*

Нахалбаев Ж.Т.,

к.ф.-м.н., заведующий лабораторией генетики, селекции и семеноводства бобовых культур.

Аннотация: В статье представлены сведения о селекции высокопродуктивных линий на основе результатов биометрического анализа образцов сортов гороха и нута в опытно-контрольно-коллекционном питомнике.